
“CHIRCHIQ” KIMYO-INDUSTRIAL TEXNOPARKINING TANTANALI OCHILISH MAROSIMI BO`LIB O`TDI

// 23 March 2022 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/chirchiq-kimyo-industrial-texnoparki-taqdimoti




Joriy yilning 23-mart kuni Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida joylashgan, mamlakatimizning, xususan Chirchiq shaharining iqtisodiy hayotida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “Chirchiq” Kimyo-industrial texnoparkining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, Tatariston Respublikasi Prezidenti Rustam Minnixanov, O‘zbekiston va Tatariston hukumati, vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari, kimyo va neft-kimyo sanoati vakillari, tadbirkorlar, mahalla faollari va faol yoshlar hamda OAV vakillari ishtirok etishdi.


Uzkimyosanoat
MATBUOT XIZMATI


Uzkimyosanoat
kimyo.uz
Boiler Engineering Company



Dastlab oliy darajadagi mehmonlar va tadbir ishtirokchilari “Chirchiq kimyo-industrial texnoparki taqdimoti, hududi, imkoniyatlari hamda texnopark rezidentlari tomonidan ishlab chiqariladigan maxsulotlar ko‘rgazmasi bilan tanishishdi. “Chirchiq” Kimyo-industrial texnoparkining tantanali ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov hamda Tatariston Respublikasi Prezidenti Rustam Minnixanovlar nutq so‘zlab, g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan voqea bilan barchani tabriklashdi va ramziy tugma bosilib, Toshkent viloyati Chirchiq shahrida joylashgan “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparki loyihasiga rasman start berildi. Tadbir davomida qator muhim hujjatlarni rasmiy imzolash va almashish jarayonlari ham o‘tkazildi.


Uzkimyosanoat
O'ZBEKISTON 24


Uzkimyosanoat
ZAMON
MATBUOT XIZMATI


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI


Uzkimyosanoat
MATBUOT XIZMATI



Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozim, 2022-yilning 3-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent viloyatida Chirchiq kimyo-industrial texnoparkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-116-son qarori qabul qilingan bo‘lib, loyihadagi barcha majmualarni bunyod etish uchun 30 million dollar miqdorida mablag‘ sarflanadi. Texnopark hududida MIZ uchun belgilangan alohida soliq, bojxona va valyuta tartibotlari amal qiladi. Texnoparkning umumiy maydoni 31,22 ga bo‘lib birinchi bosqichda 14 ta korxona ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishi kutilmoqda. Bu yerda yiliga har xil turdagi 100 dan ortiq maxsulotlar ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.


Uzkimyosanoat
“Chirchiq” kimyo industriya texnoparkining ochilish marosimi
2022-yil 23-mart



Texnopark to‘liq ishga tushishi natijasida 2 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi. Shuningdek, yiliga texnoparkda ishlab chiqarilgan 15 million dollarlik maxsulotlar eksport qilinadi. Kimyo-industrial texnoparkida dunyoning 10 dan ortiq mamlakati, jumladan, Rossiya, Germaniya, Koreya, Turkiya, Xitoy kabi davlatlarda tayyorlangan asbob-uskunalar o‘rnatiladi. Bu yerdagi korxonalar ekologik talablarga javob beradigan, ta’bir joiz bo‘lsa, “yashil” korxonalardan biri bo‘lishi bilan ham ahamiyatlidir.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati